MINTAQAVIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI BOSHQARISHNING IQTISODIY VA INSTITUTSION ASOSLARI	821
Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	
RAQAMLI AVIATSIYA EKOTIZIMI: AI/ML, DIGITAL TWIN VA BLOKCHEYN INTEGRATSIYASI	828
Azimova Moxinur Nozimovna	
XALQARO MOLIYA BOZORLARIDA INVESTITSIYA RISKLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI	834
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATINING REKREATSIYA RESURSLARI VA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI SALOHİYATI	839
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
MINTAQALAR TURISTIK-REKREATSION IMKONIYATLARINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY GIS USULLARINI QO'LLASH (SARIOSIYO TUMANI MISOLIDA)	845
Safarov Manuchexr Axtam o'g'li	
XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH	852
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
TURIZM FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYA QILISHGA OID NAZARIY BILIMLARNING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI	857
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	



TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI MUSTAHKAMLIGINI BAHOLOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI	863
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	871
Maxsudov Sherzod Solijonovich	
FISCAL, MONETARY, AND CUSTOMS-TARIFF POLICIES IN ENSURING NATIONAL ECONOMIC STABILITY: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	877
Mahmudov Sarvar	
ATROF-MUHITGA OID FISKAL KO'RSATKICHLAR ASOSIDA MINTAQAVIY BAHOLASH	882
Zilola Rahmatova	
XORAZM VILOYATI TUMANLARIDA EKSPORT SAMARADORLIGI: STOXAСТИK CHEGARAVIY TAHLIL (SFA) ASOSIDAGI EMPIRIK YONDASHUV	887
Fozil Xolmurotov	
МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ БЕДНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НАЦИОНАЛЬНАЯ СПЕЦИФИКА.....	900
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
EKOLOGIK VAZIYAT VA AHOLI SALOMATLIGINING PROGNOZ KO'RSATKICHLARI	905
Egamqulov Husniddin Erkaboyevich	
CHO'L HUDUDLARIDA TURISTIK RESURLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	911
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich	
КОНЦЕПЦИЯ ИДЕНТИФИКАЦИИ И ИЗМЕРЕНИЯ ЭФФЕКТОВ ЗАНЯТОСТИ В ЭКОЛОГО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ	918
Сагидуллин Фарид Радикович	
ТЕНДЕНЦИИ В РАЗВИТИИ ГОСТИНИЧНОГО БИЗНЕСА В СФЕРЕ ПРОДВИЖЕНИЯ И СБЫТА ТОВАРОВ И УСЛУГ В ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	927
Бабаджанова Лола Шопулатовна	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA OZIYQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISHDA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	935
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich, Bustonov Komiljon Kumakovich	
TURISTIK MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AYRIM MASALALARI	943
Abduxamidov Sarvar Adxamovich	
TA'LIM KLASSTERLARI KONTEKSTIDA BOSHQARUVNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA STRATEGIK YECHIMLARI: TRIPLE HELIX MODEL ASOSIDA TAHLIL.....	947
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
EKOLOGIK TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI.....	954
Xamdullayeva Gulhayo Ergash qizi	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI	960
Sirojiddinov Kamoliddin	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	967
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
AGROTADBIRKORLIK FAOLIYATINING ASOSIY FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARI.....	971
Nasriddinov Xusanbek Sadriddin o'g'li	
TEMIR YO'L TRANSPORTIDA ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI	976
Abdusattorov Abdusamat Sobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH VA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHDA MENEJMENT QARORLARINING IQTISODIY TAHLILI	981
Karieva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA O'QUV DASTURLARINING KAPITAL ZICHLIGI	989
Dusanov Salim Mamarasulovich	



QATTIQ CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	995
Temirov Azizbek Voit o'g'li	
STRATEGIK REJALASHTIRISH ORQALI KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH	1002
G.Ya. Muxibova, O.U. Sharifxodjayeva, O. To'rabekova	
ДЕТЕРМИНАНТЫ И ПОСЛЕДСТВИЯ МЕЖРЕГИОНАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ РАБОЧЕЙ СИЛЫ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1009
Шакаров Зафар Гаффорович	
TURIZM KLASSTERLARIDA TIBBIY XIZMATLAR INTEGRATSIYASI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1018
Yazdanova Shohista Tuyg'un qizi, Farxodova Shohnnoza Umidbek qizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASI KORXONALARINING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRUVCHI ZAMONAVIY YONDASHUVNI ISHLAB CHIQISH	1027
Xojiyeva Nazokat Davronbekovna	
QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARINING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: O'ZBEKISTON MISOLIDA.....	1034
Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi	
O'ZBEKISTON QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	1039
Qurbaniyozov Shaxzodbek Karimovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1044
Qurbanbayev Jurabek Eruvboyevich	
FINTECH TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING KORXONA LIKVIDLIGIGA TA'SIRI.....	1048
Karimov Xondamir Jamshid o'g'li	
IMPROVING STRATEGIC MANAGEMENT ACCOUNTING OF INCOME AND EXPENSES.....	1056
Pardaeva Shakhnoza Abdinabievna	
DIGITAL SKILLS AND ACCOUNTING EDUCATION: NEEDS AND GAPS IN UZBEK HIGHER EDUCATION – CURRICULUM IMPLICATIONS FOR THE DIGITAL AGE	1061
Rustamova Iroda Bahtiyorovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT XIZMATLARI: ZAMONAVIY TAHLIL VA TARAQQIYOT TENDENSIYALARI.....	1066
Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARINING YUQORI SIFATLI RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	1073
Yaxshiyev Shahzod Sherali o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNING BARQAROR RIVOJLANISH	1079
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
MAHSULOT, ISH (XIZMAT)LAR TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY XARAJATLAR VA ULARNI HUIJATLASHTIRISH.....	1084
Bolibekov Baxtiyor Achilovich, Rahmonqulov Temirbek Eshmamatovich	
AYOLLARNING YETAKCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA TO'SIQLARI	1088
Baymuratova Guldjahan Xamdhamovna	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH AMALIY TAHLILI JARAYONLARI.....	1093
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIVAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Asurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	



O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSİYALARNING ROLI

Nazarova A.N.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktranti

Email: asalnazarova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining to'qimachilik sanoati, ushbu soha bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili, to'qimachilik va kiyim-kechak sohasining rivojlanish dinamikasi, ishlab chiqarish hajmlarining o'sish tendensiyalari hamda xorijiy investitsiyalarning bu jarayondagi o'rni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, xorijiy investitsiyalar, raqobatbardoshlik, eksport, brend, aqlli to'qimachilik, klaster tizimi.

Abstract. This article analyzes the textile industry of the Republic of Uzbekistan, the review of research conducted in this field, the development dynamics of the textile and garment sector, the growth trends of production volumes, and the role of foreign investments in these processes.

Key words: textile industry, foreign investments, competitiveness, export, brand, smart textiles, cluster system.

Аннотация. В данной статье проанализированы текстильная промышленность Республики Узбекистан, результаты исследований в этой сфере, динамика развития текстильной и швейной отрасли, тенденции роста объемов производства, а также роль иностранных инвестиций в этих процессах.

Ключевые слова: текстильная промышленность, иностранные инвестиции, конкурентоспособность, экспорт, бренд, умный текстиль, кластерная система.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda sanoat tarmoqlarining rivoji alohida ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotimizning 3 foizini, sanoatning esa 14 foizini yaratayotgan to'qimachilik tarmog'i bugungi kunning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu soha nafaqat mamlakat ichki bozorini tayyor mahsulot bilan ta'minlash, balki eksport salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishi bilan ham ahamiyatlidir.

To'qimachilik sanoati global ishlab chiqarishning asosiy qismi bo'lib, ko'plab mamlakatlarda qo'shilgan qiymat va YalMning muhim qismini tashkil qiladi. Xususan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda to'qimachilik va kiyim-kechak bozori taxminan 1,84 trillion AQSh dollariga baholangan bo'lib, bu dunyo YalMning 1,63 foiziga teng¹. To'qimachilik mahsulotlari eksportida yetakchi davlatlar — Bangladesh, Vyetnam va Hindistonda ushbu soha YalMning 2–6 foiziga to'g'ri keladi. International Labour Organization (ILO) ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda tarmoqda qariyb 430 million kishi mehnat qilmoqda, ularning asosiy qismini (75 foiz) ayollar tashkil etadi².

To'qimachilik sanoati yurtimizda ham asosiy ishlab chiqaruvchi tarmoqlardan biri hisoblanib, uning iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashdagi o'rni beqiyosdir. Shu sababli, davlat miqyosida qabul qilinayotgan barcha qonunlar, qarorlar va strategiyalarda ushbu sohani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-dekabrda "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5285-sonli³, 2019-yil 12-fevraldagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4186-sonli⁴, hamda 2024-yil 1-maydagi "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib

1 Statista, "Textile & Apparel Market Size Worldwide," 2025

2 World Trade Statistical Review 2023 // https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/wtsr_2023_e.pdf

3 <https://lex.uz/docs/-3459667>

4 <https://lex.uz/ru/docs/-4199421>



chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-71-sonli⁵ Farmon va qarorlari ushbu tarmoqning rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy asos yaratmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son⁶ Farmonida belgilangan 83-maqсад doirasida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga oshirish alohida vazifa sifatida belgilangan. Mazkur maqsadga muvofiq, milliy brendlarni rivojlantirish va ularning eksport hajmini kengaytirish, jumladan milliy va xorijiy brendli tayyor mahsulot eksportini 2026-yilda 5 milliard AQSh dollariga yetkazish, sohadagi ish o'rinlari sonini 570 ming nafarga yetkazish, shuningdek amalga oshiriladigan loyihalarning ehtiyojidan kelib chiqib Toshkent to'qimachilik texnoparki hamda boshqa oliy o'quv yurtlarida malakali kadrlar tayyorlash vazifalari belgilangan.

Ushbu vazifalar va maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun, eng avvalo, to'qimachilik sanoatining hozirgi holatini to'liq anglash, undagi zamonaviy tendensiyalarni chuqur tahlil qilish zarur. Shu nuqtayi nazardan, ushbu maqolada O'zbekiston sanoatida to'qimachilik tarmog'ining o'rni, asosiy rivojlanish ko'rsatkichlari, mavjud muammolar hamda istiqboldagi yo'nalishlar tahlil etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston to'qimachilik sanoatining rivojlanish dinamikasi va unda xorijiy investitsiyalarning o'rni bo'yicha so'nggi yillarda bir qator ilmiy tadqiqotlar va tahliliy ishlar chop etilgan bo'lib, ularda asosan mamlakat to'qimachilik sanoatining rivojlanish tendensiyalari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ta'siri hamda sanoatni modernizatsiya qilishdagi muammolar va imkoniyatlar tahlil qilingan.

Xorijiy olimlardan Rudenko va hamkorlari o'z tadqiqotlarida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratganlar [1].

Xitoylik tadqiqotchi Kim o'zining "An Analysis of the Development of Textile Industry and Its Investment Attractiveness in Uzbekistan" nomli maqolasida O'zbekiston to'qimachilik sanoatining investitsiya jozibadorligini tahlil qilgan va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sanoatni global qiymat zanjirlariga integratsiya qilishdagi muhim omil ekanligini ko'rsatgan. Shu bilan birga, muallif infratuzilma va malakali kadrlar yetishmasligini xorijiy investorlar uchun asosiy to'siq sifatida baholagan [2].

Mahalliy olim Abdullayev "Viewpoints About Potential Stimulation and Possibilities of Investments on Textile Industry Uzbekistan" nomli maqolasida O'zbekiston to'qimachilik sanoatida investitsiyalarni rag'batlantirish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Muallif, ayniqsa, ipak tolasi qayta ishlash sohasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali sanoatni rivojlantirish imkoniyatlariga e'tibor qaratgan. Tadqiqotda xorijiy kapitalning mahalliy ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va eksport imkoniyatlarini kengaytirishdagi muhim roli alohida ta'kidlangan [3].

Sodiqov esa o'z tadqiqotida O'zbekiston to'qimachilik sanoatining hozirgi holatini tahlil qilib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi muvaffaqiyatlarni yoritgan. Muallif bozorning o'sish salohiyatini va qulay investitsiya muhitini FDning asosiy omillari sifatida baholagan [4].

Bundan tashqari, o'zbek olimi Abdurakhmanov o'z ilmiy ishida O'zbekistonda to'qimachilik sanoatida investitsiyalarni boshqarish mexanizmlarini tahlil qilib, xorijiy investitsiyalarning sanoat modernizatsiyasi va eksport hajmini oshirishdagi muhim rolini ko'rsatgan. Shu bilan birga, u investitsiya jarayonida shaffoflik va barqarorlikni ta'minlash zarurligini ta'kidlagan [5].

Ismoilov 2024-yilda chop etilgan "The Role of Foreign Direct Investment (FDI) in Uzbekistan's Economic Growth" nomli ishida O'zbekiston iqtisodiy o'sishida FDning umumiy rolini o'rganib, to'qimachilik sanoatini alohida misol sifatida tahlil qilgan. Tadqiqotda FDning sanoatni diversifikatsiya qilish va global bozorda raqobatbardoshlikni oshirishdagi ta'siri chuqur o'rganilgan hamda xorijiy investorlar uchun infratuzilma va huquqiy barqarorlikni ta'minlash zarurligi qayd etilgan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolani yoritishda to'qimachilik tarmog'i va undagi zamonaviy tendensiyalarga oid O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari hamda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalaridagi taniqli olimlarning ilmiy ishlari o'rganildi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni tahlil qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Mavzuni yoritishda ilmiy-texnik axborot manbalari — darsliklar, o'quv qo'llanmalar, xorijiy adabiyotlar, davriy matbuot nashrlari, ilmiy-amaliy anjuman materiallari va internet ma'lumotlaridan foydalanildi.


5 <https://lex.uz/uz/docs/-6908347>

6 <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi jahon bozorida paxta xomashyosi yetishtirish bo'yicha yetakchi davlatlardan biri sifatida ajralib turadi. Shu sababli, mamlakat iqtisodiy siyosatida to'qimachilik sanoati nafaqat xom ashyoni chuqur qayta ishlash, balki yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni tashqi bozorlarga eksport qilish imkoniyatlarini kengaytiruvchi strategik tarmoq sifatida qaraladi. Ushbu soha mamlakat yalpi sanoat ishlab chiqarish hajmining sezilarli qismini tashkil etib, tayyor mahsulotlar eksportida ham yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Xususan, so'nggi yillarda to'qimachilik tarmog'i yalpi ichki mahsulotda, sanoat ishlab chiqarishida hamda tashqi savdoda barqaror o'sish sur'atlarini namoyon qilmoqda (1-rasm).




1-rasm. To'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarish hajmi⁷

Yuqoridagi rasm ma'lumotlari so'nggi 15 yilda O'zbekiston to'qimachilik va kiyim-kechak sanoati ishlab chiqarish hajmlarida barqaror hamda yuqori sur'atli o'sish kuzatilganini tasdiqlaydi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2010-yilda to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4,8 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yakunida ushbu ko'rsatkich 89,5 trln so'mga yetgan. Mazkur davr mobaynida kiyim ishlab chiqarish hajmi yanada yuqori intensivlikda rivojlanib, 2010-yildagi 0,58 trln so'mdan 2024-yilda 31,8 trln so'mga yetgan va natijada 55 baravardan ortiq o'sishga erishilgan.

Dinamik tahlil shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi sanoatning asosiy tayanch segmenti bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, kiyim-kechak ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarda o'sishi mamlakatning chuqur qayta ishlash va qo'shilgan qiymatni oshirish siyosati samaradorligini yaqqol namoyon etadi. Ushbu tendensiyalar bir tomondan ichki bozor talabining kengayishini, ikkinchi tomondan esa tashqi bozorlarda raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ulushining ortib borayotganini anglatadi.

Shuningdek, klaster tizimining joriy etilishi, soliq va bojxona imtiyozlarining qo'llanilishi, xorijiy investitsiyalar oqimi hamda xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish texnologiyalarining keng tatbiq etilishi soha o'sishining asosiy drayverlari sifatida e'tirof etiladi. To'qimachilik sohasi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ham sezilarli ulushga ega bo'lib, 2025-yilda tarmoq sanoatning 14 foizini tashkil etmoqda (2-rasm):




2-rasm. To'qimachilikning sanoatdagi ulushi⁸

⁷ Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi

⁸ Muallif ishlanmasi



Yuqorida ta'kidlanganidek, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sishi bevosita sohaga jalb etilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi bilan uzviy bog'liqdir. Chet el kapitalining kirib kelishi tarmoqni faqat xomashyo yetkazib beruvchi emas, balki tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi hamda xalqaro bozorda raqobatbardosh soha sifatida rivojlantirishda muhim strategik omil bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishga yo'naltirilayotgan xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada ortgani kuzatilmoqda. Buni quyidagi grafikda yaqqol ko'rish mumkin (3-rasm).



3-rasm. To'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak ishlab chiqarishga jalb qilinayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi⁹

To'qimachilik sohasiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishning asosiy maqsadi — O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yuqori navli paxta tolasidan foydalangan holda yuqori sifatli, qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga qodir xorijiy kompaniyalarni jalb etishdan iborat. Shu orqali xorijiy investitsiyalar nafaqat ichki ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga, balki xalqaro bozorlarda O'zbekiston mahsulotlari ulushini oshirishga xizmat qilmoqda. Qayd etish lozimki, O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari eksportining geografiyasi ham yildan-yilga kengayib, Yevropa, Osiyo va MDH davlatlari asosiy hamkorlar sifatida shakllanmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bugungi kunda O'zbekiston 55 dan ortiq davlatga to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilmoqda va dunyo to'qimachilik eksport hajmining 0,48 foizini tashkil etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri sifatida barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. So'nggi yillarda ishlab chiqarish hajmlarining sezilarli darajada ortishi, ayniqsa kiyim-kechak segmentining yuqori intensivlikda rivojlanishi, chuqur qayta ishlash siyosati va qo'shilgan qiymatni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samarali ekanini tasdiqlaydi. Soha yillik 3–4 milliard AQSh dollari miqdorida eksport daromadini ta'minlab, yuz minglab yangi ish o'rinlarini yaratmoqda. Biroq, global bozorda raqobatni kuchaytirish uchun modernizatsiya, barqarorlik va innovatsiyalarga yanada ko'proq e'tibor qaratish zarur.

To'qimachilik sanoatini yanada rivojlantirish va jahon bozorida uning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida muallif quyidagi chora-tadbirlarni taklif etadi:

To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida paxta yetishtirishdan tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarishgacha bo'lgan to'liq ishlab chiqarish siklini yaratish.

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali yangi texnologiyalarni joriy etish va mavjud klasterlarni modernizatsiya qilish.

9 Statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzildi



Uskunalar va ehtiyot qismlar importini bojxona bojlaridan ozod qilish hamda import tartibini soddalashtirish. Aqlli to'qimachilik va sintetik tolalar ishlab chiqarishni rivojlantirish, shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (ICT) va zamonaviy dizayn yondashuvlarini keng qo'llash.

O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarini xalqaro ko'rgazmalarda faol targ'ib qilish, milliy brendlarni rivojlantirish va mashhur dizaynerlar litsenziyasi ostida mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish.

Eksportda ekologik standartlarni oshirish, xususan organik paxta va qayta ishlanadigan tolalarga bosqichma-bosqich o'tishni jadallashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rudenko, I., & others. (2019). A sustainable development strategy for the Uzbekistan textile industry. Sustainable Development, 27(4), 567-578.
2. Kim, S. (2019). An analysis of the development of textile industry and its investment attractiveness in Uzbekistan. Journal of Economic Development Studies, 12(2), 78-90.
3. Abdullaev, A. (2014). Viewpoints about potential stimulation and possibilities of investments on textile industry Uzbekistan. International Journal of Textile and Fashion Technology, 4(3), 45-56.
4. Sodiqov, T. (2021). Analysis of the current state of the textile industry of Uzbekistan. Central Asian Economic Review, 5(1), 23-34.
5. Abdurakhmanov, K. (2025). Analysis of investment management in the textile industry of Uzbekistan. Asian Journal of Business and Management, 13(1), 15-27.
6. Ismoilov, R. (2024). The role of foreign direct investment (FDI) in Uzbekistan's economic growth. Journal of International Economics, 18(2), 112-125.
7. <https://lex.uz>
8. <https://stat.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
